

Yoshlar bandligini ta'minlash
maqsadida ajratilgan kreditlar:

Ajratilgan kreditlar soni:
5850 ta

Jami ajratilgan kredit summasi:
161757,7 mln.

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

20 (16473)
2022-yil, 13-aprel
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Yoshlar siyosati
3-bet

Milliy kadrlar
zaxirasi

"Yosh kitobxon"
4-bet

Mavsum
yakuniga yetdi

Mahallada yoshlar yetakchisi
7-bet

Haqiqiy
minbar



maxsus son



YOSHLARGA OID DAVLAT
SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA

**MAHALLADAGI YOSHLAR
YETAKCHILARINING O'RNI**



YOSHLAR YETAKCHILARI UCHUN

TAJRIBA VA MULOQOT MAYDONI

15

-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rni" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tadi.

Yangi O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash borasida o'ziga xos yondashuvlar, strategiyalar hayotga tatbiq etilmoqda. Davlat boshqaruv tizimi vertikal markazdan eng quyi-ga va jamiyatning eng quyi bo'g'indan qayta aloqa shakllanmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari mahalla yetakchisining faoliyati ijtimoiy hayotga, ijtimoiy munosabatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan omil bo'lishiga ishonch hosil qilishmoqda.

Yoshlar bilan ishlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga faol jalb qilish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari aynan mahallada hal etilyapti.

Bu borada Prezidentimizning "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyatga ega. Mazkur hujjat aso-

sida yoshlar bilan ishlashning yangi-chi - vertikal tizimi yaratilib, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligi yanada oshirilyapti.

Har bir mahallada yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega, yoshlarni ergashtira oladigan, shaxsiy fazilatlari bilan namuna ko'rsatgan, fidoyi, sadoqatli va vatanparvar nomzodlar yoshlar yetakchisi lavozimi tayinlandi. Ularga muhim vazifalar, keng huquq va vakolatlar, zarur moddiy-texnik imkoniyatlar yaratib berildi.

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi mahallalarda yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangicha tizimning mazmun-mohiyatini ommalashtirish, olimlar va mutaxassislar ishtirokida muhokama qilish maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rni" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o'tkazmoqda.



- Konferensiya Davlat boshqaruvi akademiyasida yalpi majlis va 5 ta sho'ba yig'ilishi shaklida tashkil etilib, 30 nafardan ziyod vazirlik va idora rahbarlari, hududiy hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, agentlik va yoshlar ittifoqi raislari hamda 50 nafardan ziyod olim va tadqiqotchilar qatnashadi, - deydi Yoshlar ishlari agentligi direktorining o'rinbosari Dilnoza Katta-xonova. - Unda yoshlarga oid davlat siyosatini "mahallabay" joriy etish mexanizmlari, "Besh muhim tashabbus"ni amalga oshirish masalalari, "Yoshlar daftari" va "Yoshlar balans"

bilan ishlash, yosh liderlarni tayyorlash va milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olishda "mahallabay" ishlash tizimining o'rni muhokama qilinadi. Shuningdek, seminarlarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rni, sohada uchrayotgan muammolar va tizim samaradorligini yanada oshirish istiqbollari muhokama qilinib, ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Mazkur konferensiya mahallalarda yoshlar bilan ishlash bo'yicha yo'lga qo'yilgan yangicha tizim samaradorligini oshirish yuzasidan o'zaro fikr almashish maydonini yaratadi.

Konferensiyada 200 nafar ishtirokchi oflayn, 9 mingdan ortig'i esa onlayn tartibda qatnashadi. Mahallalardagi yoshlar yetakchilari esa joylarda tashkil etilgan hududiy studiyalardan ishtirok etadi.

"Mahallada yoshlar yetakchilari tizimini joriy etishning siyosiy jihatlari", "Besh muhim tashabbus" loyihalarini mahallalarda tashkil etish xususiyatlari, "Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda kasbiy yo'naltirishga ko'maklashish", "Yosh kadrlarni tayyorlashning tashkiliy-metodologik muammolari", "Mahallada ijtimoiy-ma'naviy

muhitni sog'lomlashtirish, yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasini tashkil qilish tartibi", "Mahallalarda yoshlarni Vatanga sadoqat, amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari" kabi qiziqarli va dolzarb ma'ruzalar bilan birga, bahs-munozara, erkin fikr almashish, konferensiya ishtirokchilarining nazariy bilim hamda amaliy tajribalari bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

Bir so'z bilan aytganda, konferensiya mahalladagi yoshlar yetakchilari uchun yangi imkoniyat, tajriba va muloqot maydoniga aylanadi.

KONFERENSIYADA 200 NAFAR ISHTIROKCHI OFLAYN, 9 MINGDAN ORTIG'I ESA ONLAYN TARTIBDA QATNASHADI.

SPORTSEVARLAR

UCHUN YANGILIK

2022
-YIL 11-APRELD
PREZIDENTIMIZNING
"MAHALLALARDA YOSHLARNI OMMAVIY SPORTGA JALB QILISHNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA"GI QARORI QABUL QILINDI.

Qaror asosida mahallalarda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ularni sportga jalb etishni yangi bosqichga olib chiqish hamda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash uchun ommaviy sportni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Endilikda mahallalarda yoshlarning ommaviy sport bilan shug'ullanishlari uchun moddiy-texnik baza mustahkamlanadi. Imkoniyati cheklangan yoshlar uchun sport infratuzilmasi yaratiladi.

2022-yildan har yili an'anaviy tarzda 30-iyun - Yoshlar kuni ham-


da dekabr oyida o'tkaziladigan "Yoshlar forumi" doirasida sportning futbol, mini-futbol, voleybol, yengil atletika, shaxmat, shashka, stol tennis, stritbol, vorkaut turlari bo'yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy etiladi. Ko'chalararo, mahallalararo, tuman va shahar, viloyat hamda respublika (final) bosqichlarda o'tkaziladigan musobaqalar "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida tashkil etiladi.

2023-yil 1-martdan olimpiya,

noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Bundan tashqari, ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanuvchi oilalarga mahallalar va istirohat bog'larida zarur sharoitlar yaratilib, oilaviy sportni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yiladi. 2022/2023-o'quv yilidan maktablarda o'quvchilarning qiziqishlari va istaklaridan kelib chiqqan holda kamida bitta sport turi bo'yicha to'garaklar tashkil etiladi.

Yoshlarning qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida tajribali va taniqli sportchilar ishtirokida motivatsion uchrashuvlar o'tkaziladi.





Alisher SA'DULLAYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati a'zosi,
Yoshlar ishlari agentligi
direktori



YOSHLAR MUAMMOLARI MAHALLALARDA HAL ETILADI

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtning munosib kelajagi uchun daxldorlikni his etadigan, maqsadga intiluvchan, sadoqatli qilib tarbiyalash O'zbekiston dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'rin olishining muhim omilidir.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamiga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, yoshlar tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda. Yoshlarning o'z iqtidor va iste'dodini ro'yobga chiqarishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etishda O'zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan yangi bir tizimga ehtiyoj borligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shularni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahal-

lalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari ta'g'risida"gi PQ-92-sonli qaroriga asosan, yoshlar bilan ishlashning yangicha mexanizmlarini joriy etish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida barcha mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi mazkur jarayonda mahallalarda yoshlar yetakchilarining bilimi va kasbiy layoqati muhim ahamiyatga ega bo'lib, aynan ular qabul qiladigan oqilona qarorlar mahallalarda yoshlarning qator muammolarini hal qilish imkonini beradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda mazkur agentlik huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti hamkorligida mahallalardagi yoshlar yetakchilarining bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuvni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifati ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ularni tadbirkorlikka keng

O'ZBEKISTON YOSHLARINI BUYUK MAQSADLAR SARI BIRLASHTIRADIGAN VA SAFARBAR ETADIGAN YANGI BIR TIZIMGA EHTIYOJ BORLIGINI HAYOTNING O'ZI KO'RSATMOQDA.

jalb etish orqali bandligini ta'minlash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni shakllantirib olish masalalarini tegishli mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirokida muhokama qilish o'ta muhim ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir.

Shu munosabat bilan "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rni" mavzusida respublika konferensiyasi tashkil etilmoqda. Unda yoshlarga oid davlat siyosatini "mahallabay" joriy etish mexanizmlari, "Besh muhim tashabbus"ni amalga oshirish masalalari, "Yoshlar daftari" va "Yoshlar balans" bilan ishlash, yosh liderlarni tayyorlash va milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olishda "mahallabay" ishlash tizimining o'rini belgilash bilan bogliq ko'plab muammolar va ularning yechimlarini har tomonlama muhokama qilish rejalashtirilmoqda.

Fursatdan foydalanib, bo'lajak respublika konferensiyasida ishtirok etuvchi barcha mutasaddi rahbarlar va professional mutaxassislarining muhim ilmiy-amaliy anjuman doirasidagi faoliyatiga ulkan za'fatlar va ijodiy barkamollik tilab qolaman!



MILLIY KADRLAR ZAXIRASI

Otabek HASANOV,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktorining birinchi o'rinbosari, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa (PhD) doktori



Mahallalarda yoshlar yetakchilari lavozimining joriy etilishi davlat fuqarolik xizmati oldida turgan bir qator muhim masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Birinchidan, davlat fuqarolik xizmatiga qariyb 10 mingga yaqin sadoqatli va shijoatli, har bir masalaga nostandart yechim topishga qodir yangi avlod kadrlari kirib kelmoqda. **Ikkinchi**dan, milliy kadrlar zaxirasi quyi bo'g'inlarda muammolarni o'rgangan, bevosita fuqarolar bilan ishlagan kadrlar bilan ta'minlanadi. **Uchinchi**dan, "tengdosh – tengdoshga" tamoyili asosida yoshlar orasida yuzaga keladigan masalalarni tizimli hal qilishda bevosita yoshlarning ishtiroki ta'minlanadi. **To'rtinchi**dan, yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi va xotin-qizlar faoli davlat boshqaruvining bevosita eng quyi bo'g'iniga qadar kirib borishiga va aynan mahalla darajasida davlat siyosatini yanada kuchaytirishiga erishiladi.

Mahallalarda yoshlar yetakchilari lavozimi joriy etilishining yana bir muhim jihati shundaki, namunali yetakchilar mehnat faoliyati natijasiga qarab milliy kadrlar zaxirasiga kiritiladi. Bu ularning kelgusida o'z yo'nalishi bo'yicha rahbarlik lavozimlariga tayinlanishida o'ziga xos pilla-pilla vazifasini o'taydi.

Milliy kadrlar zaxirasi davlat sektorida rahbar kadrlar tarkibini barqaror ta'minlash va uning sifatini yaxshilash, davlat xizmatlashining kasbiy bilimini oshirish hamda xizmat lavozimi bo'yicha ko'tarish maqsadida shakllantiriladi. Vaqti kelib mahallada samarali faoliyat ko'rsatgan yoshlar ham hokim o'rinbosari, hokim, vazir o'rinbosari, vazir darajasiga yetishadi.

Yuqori salohiyatga ega yoshlar uchun "Kelajak liderlari" va "Prezident zaxira kadrlari" o'quv dasturi tashkil etilishi ko'zda tutilmoqda.

“YOSH KITOBXON” MAVSUM YAKUNIGA YETDI

YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI
HAR YILI O'TKAZIB
KELAYOTGAN “YOSH
KITOBXON” TANLOVINING
RESPUBLIKA BOSQICHI O'Z
YAKUNIGA YETDI.

8

kun davom etgan bellashuvlar yorqin xotiralar bilan tarixga muhrlandi.

Tanlovning 20-30 yosh toifasidagi kitobxonlar bahslari keskin kurash va munozaralarga boy bo'ldi. Ayrim shartlarda ishtirokchilarga qiyinchilik tug'dirgan holatlar ham uchradi. Tanlovda avvalgi yillarda ham qatnashganlar xatolaridan xulosalar chiqarib, jiddiy tayyorlanganining guvohi bo'ldik. Yakunda **1-o'rin** Toshkent shahar vakili Sevinch Avazovaga nasib etdi. Sevinch 313,8 ball to'plashga muvaffaq bo'ldi va Prezident sovg'asi – “Spark” avtomashinasi sohibiga aylandi.

2-o'rin Buxoro viloyati sharafigi himoya qilgan Shamshoda Hamdamovaga (292,4 ball) nasib etdi. U o'tgan mavsumda ham 2-o'rin bilan kifoyalangan edi. Toshkent viloyati vakili Farrux Fayzulloev (290 ball) **3-o'rinni** qo'lga kiritdi.

G'olib va sovrindorlarga maxsus statuetka, diplom hamda hamkor tashkilotlar tomonidan kitoblar taqdim etildi.



MAVSUM YAKUNIDA “YOSH KITOBXON” TASHKIL ETILGANINING 5 YILLIGI MUNOSABATI BILAN TANTANALI TADBIR O'TKAZILDI.


Gala-konsertga Yoshlar ishlari agentligi direktorining o'rinbosari Jamshid Xo'jayev, turli vazirlik va idoralar vakillari, jurnalistlar taklif qilindi. Yubileyning asosiy mehmonlari o'tgan 5 mavsumning chempionlari bo'ldi. Avvalgi yillarda Prezident sovg'asini qo'lga kiritgan yoshlar taklif qilinib, ularning fikrlari tinglandi.

Biz esa g'oliblar hamda taklif etilganlarning tanlov haqidagi fikr va xulosalarini so'radik:

Sevinch AVAZOVA,

tanlov g'olibi, Prezident sovg'asi – “Spark” avtomashinasi sohibi:

– Hech bir farzand ota-onasining ko'z yoshini ko'rishni istamaydi. Ammo men bugun ota-onamni ikkinchi bor yig'latdim. Bu xursandchilik ko'zyoshlaridir. Talabalik baxtiga muyassar bo'lganimda onam xursandchilikdan ko'z yosh to'kkanini ko'rgandim. Bir narsaga amin bo'ldim: o'qib izlansa barcha orzular amalga osharkan. Men ham orzu qilgandim va bunga erishdim.



Farrux FAYZULLAYEV,

3-o'rin sovrindori, Toshkent viloyati:

– “Yosh kitobxon” tanloviga qatnashishimga turtki bo'lgan kishi turmush o'rtog'im. U 2018-yilda Prezident sovrinini qo'lga kiritgandi. Uning da'vati, ota-onamning, hamkasblarim, o'quvchilarim ishonchi bilan shu yergacha yetib keldim va 3-o'rinni oldim. Bundan hech qachon afsuslanmayman. Sababi yuqori o'rinlarni olgan har ikki qiz ham judayam kuchli. Nasib qilsa, keyingi yil, albatta, “Spark”ka erishaman.

Diyora KAMOLIDDINOVA,

“Yangi davr” informatsion dasturi muxbiri:

– Tanlovni ilk kunidan boshlab bevosita kuzatib boryapman. Juda ko'tarinki ruhda tashkil etilgan, barcha uchun sharoitlar hozirlangan. Qta-onalar uchun maxsus pavilyonlar tayyorlangan. Savollar darajasi ancha yuqori. Ishtirokchilar yosh bo'lishiga qaramay, ko'p narsa o'rgansangiz bo'ladi. Aqlli, fikrlashi zo'r. Yoshlarga havasim keldi. Barchamizning farzandlarimiz shu yoshlarga o'xshashiga tilakdoshman.



Qandil BOBOQULOV,

Yoshlar ishlari agentligi boshqarma boshlig'i o'rinbosari, tanlov tashkilotchisi:

– Tanlovning formati biroz o'zgardi. Avvalgi yillarda 4 bosqichda o'tgan bo'lsa, bu mavsum 3 bosqichda o'tkazildi. G'oliblarga beriladigan mukofotlar borasida ham sezilarli o'zgarishni ko'rishimiz mumkin. Bu mavsum 2-o'rin sohibi 50 million so'm bilan mukofotlangan bo'lsa, 2020-yilda 30 million, avvalgi yillarda kompyuter jamlanmasi taqdim etilgan edi. 3-o'ringa bu gal 30 million berildi. 2020-yilda bu miqdor 15 millionni tashkil etgan. Oldingi mavsumlar 200 dona kitoblar jamlanmasi berish bilan cheklanilgan. Respublika bosqichining qolgan barcha ishtirokchilari 10 million so'mdan pul mukofoti bilan taqdirlandi. Avvalgi mavsumlarda “Yoshlar kutubxonasi” rukni ostida chop etilgan kitoblar to'plami berilgan. Tanlov keyingi yil 5 bosqichda o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

NATIJALAR QANDAY?

HUDUDLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida respublikamizdagi har bir mahallada yoshlar yetakchilari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, yaratilgan imkoniyatlar holati bo'yicha bir nechta hududlardagi Yoshlar ishlari agentligi boshqarma boshliqlarining fikrlari bilan qiziqdik.



Dilmurod XUDAYSHUKUROV,
Yoshlar ishlari agentligi Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig'i:

– Viloyatdagi 299 ta mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchilari tomonidan "mahallabay" o'tkazilgan xatlovlar asosida yoshlarning 15 ming 714 nafari "Yoshlar daftari"ga kiritildi. "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, oliy ta'lim muassasalari rektorlarining birinchi prorektorlari, yoshlar yetakchilari va tyutorlar bilan hamkorlik tizimi yo'lga qo'yildi.

Yoshlar yetakchilari va maktab direktori o'rinbosarlari tomonidan maktablarda 8 ming 206 nafar kam ta'minlangan, 231 nafar chin yetim, 910 nafar tarbiyasi og'ir, 312 nafar darsdan bo'sh vaqtda ishlaydigan o'quvchilar bilan manzilli ishlash belgilab berildi.

Ishchi guruh tomonidan har bir mahallada namunali tadbirlar tashkil etilib, "Yoshlarning bo'sh vaqti – yetakchining ish vaqti" tamoyili asosida 6 ta yo'nalishda har kuni tadbir va loyihalar, tanlov va musobaqalar o'tkazilishi tizimli yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunga qadar jami 11 ming 222 ta tadbir orqali 655 ming 156 nafar yoshlarning bo'sh vaqti mazmunli tashkil etildi. Misol uchun, sportning mini-futbol va "Street workout" turi bo'yicha "Viloyat hokimi kubogi" musobaqasi o'tkazildi. Shuningdek, maktablardagi: 393 ta sport zali, 457 ta kutubxona,

697 ta kompyuter xonalari moddiy-texnik bazasi (10 145 ta kompyuter, 450 ta inventar, 59 mingta kitob) mustahkamlanib, ulardan har kuni soat 16:00 dan 23:00 ga qadar samarali foydalanish yo'lga qo'yildi.

Viloyatdagi 19 ta sport maktabining 755 nafar trener-murabbiylari, maktablardagi 299 nafar jismoniy tarbiya o'qituvchilari mahallalarga birlashtirilib, yoshlar yetakchisi bilan hamkorlik tizimi belgilab berildi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kasb-hunar va tadbirkorlik sohasiga o'qitish uchun mahallalarda, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan ishsiz yoshlar ishtirokida "Yosh vatanparvarlar yig'ini" loyihasi Jizzax tajribasi asosida yo'lga qo'yildi.



Xusen TO'XTAYEV,
Yoshlar ishlari agentligi Samarqand viloyati boshqarmasi boshlig'i:

– Yil boshidagi xatlov va o'rganishlar natijasida "Yoshlar daftari"ga 72 ming 875 nafar yoshlar kiritildi. Jumladan, "Yoshlar daftari"dan chiqarilganlarning 16 089 nafari doimiy ish o'rinlariga joylashtirilgan bo'lsa, 5 409 nafariga kredit, 27 321 nafariga "Har bir yoshga bir gektar" tamoyili asosida yer maydonlari, 11 904 nafariga esa subsidiya ajratildi. 1 836 nafari "Ustoz-shogird" an'anasi doirasida hunarmandlarga birlashtirildi.

Shu bilan birga, ayrim tuman va shaharlarda "Yoshlar daftari" jamg'arma mablag'larining sarflanishi qoniqarli emas. Jumladan, viloyat bo'yicha Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlari; Qo'shrabot, Nurobod, Paxtachi, Samarqand, Narpay, Payariq, Pastdarg'om, Bulung'ur, Kattaqo'rg'on, Jomboy, Oqdarya, Ishtixon, Tayloq tumanlarida dastlabki 8 oy davomida tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qitish uchun mablag'lar yo'naltirilmagan.



Muhammadamin G'ANIYEV,
Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyati boshqarmasi boshlig'i:

– Viloyatimizning 1 055 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridagi yoshlar yetakchisi lavozimiga tanlov orqali yoshlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega, iqtidorli va malakali kadrlar saralab olingan.

Hozirda yoshlar yetakchilarining 844 nafari mahalla fuqarolar yig'ini binosida, 211 nafari maktab, oliy ta'lim va xususiy binolarda alohida xonalarga joylashgan. Ular uchun zarur sharoitlar yaratilib, zamonaviy planshetlar bilan ta'minlandi.

Farg'ona viloyatining barcha tuman va shaharlarida "Mahallada duv-duv gap" loyihasi o'tkazildi. Loyiha doirasida yoshlar yetakchilari uchun o'quv-seminar, namunaviy madaniy tadbirlar, yoshlar portali, "Yoshlar daftari"ni

yuritish va "Yoshlar balansi"ni to'g'ri tashkil qilish bo'yicha mas'ul-lar tomonidan "master-klasslar" tashkil qilindi. Yoshlar yetakchilarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "Farg'ona tajribasi" doirasida yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Viloyatdagi 1 055 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashning reyting ko'rsatkichlari (KRI) tahlil qilindi. Joriy yilning fevral oyi holatiga ko'ra, 1 055 ta mahallaning umumiy reyting ko'rsatkichi 41,6 ball(sariq)ni; 282 ta mahalla yashil (26,7 foiz), 439 ta mahalla sariq (41,6 foiz), 334 ta mahalla qizil (31,7 foiz) ko'rsatkichini tashkil qilgan.

FARG'ONA
VILOYATINING
BARCHA TUMAN
VA SHAHARLARIDA
"MAHALLADA DUV-
DUV GAP" LOYIHASI
O'TKAZILDI.



"Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rni" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida Prezident maslahatchisining birinchi o'rinbosari Q.Quranbayev, Oliy Majlis Senati raisi T.Narba-

yeva, Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi spikeri N.Ismoilov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi Q.Sariyev, shuningdek, bir qator vazirlar, turli qo'mita, agentlik rahbarlari, viloyat hokimlari hamda davlat va nodavlat tashkilotlar vakillari ishtirok etadi.

MAHALLA YETAKCHISI FAOLIYATI

DAVLAT SIYOSATI MOHIYATINI ANGLATADI

Aktam JALILOV,
Yoshlar ishlari agentligi
huzuridagi Yoshlar
muammolarini o'rganish
va istiqbolli kadrlarni
tayyorlash instituti
direktori, siyosiy fanlar
doktori, professor



Dastlabki xulosalarga ko'ra, mahallalarda yoshlar yetakchilari tizimini joriy etish zarur tashabbus ekanligi o'z isbotini topdi.

Endi bu tashabbusning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, uni yoshlarga, davlat idoralariga to'g'ri yetkazish va qo'llab-quvvatlash yo'nalishida yangi metodologiyani yaratishga zarurat tug'ilmoqda. Zero, bugungacha qilingan ishlar salmog'i qanchalik muhim bo'lmasin, bu tadbirlarni yagona maqsad yo'lida birlashtirish, vazirlik va idoralar bu yo'nalishda o'zaro muvofiq harakat qilishiga erishish zarur. Dastlabki oylarda jalb etilgan vazirlik va idoralar mahalla yetakchisi faoliyatini yo'lga qo'yishga jiddiy kirishdi, tez orada oylik va yillik rejalar qabul qilindi. Shu bilan birga ba'zi hududiy ijro hokimiyati vakillarining bu tashabbusning ahamiyatini to'g'ri tushunish va to'liq baho berish borasidagi munosabatini o'zgartirish talab etilmoqda.

Ularni to'g'ri yo'naltirish uchun, avvalo, mahalla yetakchisi tizimining yaqin va uzoq istiqboldagi strategiyasi borasida mulohaza yuritish, bu muvovaqqat tashabbusini yoki uzoq davrga mo'ljallangan strategik rejami – shu masalani to'g'ri baholash va barcha bo'g'inlarga tushuntirish zarur.

Biror-bir kishi mahalla institutidan tashqarida yashamaydi. Mahallaning rivoji – tuman yoki shaharning rivoji, tuman-shaharning rivoji esa, o'z-o'zidan viloyat va mamlakat ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlaydi. Bu oddiy mantiq bo'lishi bilan birga, ijtimoiy taraqqiyotning muhim bo'g'ini ekanligini yodda tutish kerak.

O'zbekiston yoshlarga e'tibor berish borasida dunyodagi yetakchi davlatlardan biri ekanini nazarda tutilsa, mahallada amalga oshirilayotgan tadbirlar, mahalla yetakchisi faoliyatini rivojlantirishga bo'lgan davlat siyosatini anglatadi.

Uzoq istiqbolda esa jamiyatda yoshlarda muvaffaqiyatga intilish, maqsadni belgilash, g'alabaga yo'naltirish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Bu ijtimoiy munosabatlarda yangicha jarayon, musobaqa ruhiyatini vujudga keltirib, g'alabaga tinimsiz harakat, mehnat va intilish orqali erishish to'g'risidagi ishonchni mustahkamlaydi. Oradan yillar

o'tgach, o'zbek jamiyati global jarayonlar va tendensiyalar bilan hamnafas, dunyodagi ilmiy-texnik taraqqiyot, innovatsion yangilanishlardan boxabar va hatto ularga integratsiya bo'lishga tayyor avlodni tarbiyalaydi.

Har qanday tanlov va musobaqa yoshlarni harakatga, ilmga, yutuqqa yo'naltirar ekan, kelajakda O'zbekiston xalqining intiluvchanligini kuchaytirishga xizmat qilishi zarur. Buning uchun musobaqa va tanlovlarda adolatni ta'minlash asosiy mezon bo'lishi darkor.


Mahalla yetakchilari bilan suhbatda ma'lum bo'lmog'daki, ularning aksariyatida muloqot qobiliyati yuqori, umumiy ijobiy kayfiyat yuqori turuvchi tashkilotlar bilan jadal va nstandart ish rejimi'da ishlash ko'nikmasi mavjud. Yetakchilarning yoshlarga oid davlat siyosatini to'g'ri tushunib, o'z faoliyatini samarali yo'lga qo'yishdagi murakkabliklarni yengib o'tishga ishtiyoqi yuqori. Shu bilan birga, ayrim yetakchilar tafakkurida yetakchilik – serqirralik, jadallik, tashabbuskorlik, shiddat talab etadigan faoliyat ekanligini anglash tuyg'usi yetishmaydi. Bunday yetakchilarni davlat xizmatchisi ruhiyatiga ega bo'lgan, o'z kelajagini davlat tizimlarida ko'radigan xodimlar bilan almashtirish masalasi yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda, "Yoshlar birlansini" shakllantirish maqsadida aksariyat hududlarda xatlov ishlari yakuniga yetgan, yetakchilar qo'lida yoshlarga oid asosiy ko'rsatkichlar mavjud. Statistika shakllantirish jarayonida – yoshlar bandligi, xorijga chiqish, jinoyatchilik va ajrimlarga oid ko'rsatkichlarda tabiiy ravishda noaniqliklar kuzatilmoqda. Yetakchilar o'z vakolati va vazifalarini to'laqonli tasavvur qilishi, mas'uliyati va ahamiyatini tushunish borasida maxsus o'quvlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Yetakchilarning psixologik qiyofasi va faoliyat samaradorligini doimiy o'rganib borish talab etiladi.



“
**BUGUNGI KUNDA
BARCHA VILOYAT
VA TUMANLARDA
YO'LGA QO'YILGAN
SHTABLAR
FAOLIYATI SEKTOR
RAHBARLARI
TOMONIDAN
NAZORATGA
OLINGAN.**

Bugungi kunda barcha viloyat va tumanlarda yo'lga qo'yilgan shtablar faoliyati sektor rahbarlari tomonidan nazoratga olingan. Mahallalarni sektorlar kesimida o'rganish jarayonida shtabga birlashtirilgan tashkilotlardan olingan aksariyat statistik ma'lumotlar real holatga to'g'ri kelmasligi ham kuzatiladi. Buning sababi idoralararo ma'lumot almashinuvida nomuvofiqlik bor. Tashkilotlardan ma'lumotlar olish va ulardan foydalanish borasida mahalla yetakchilarida normativ darajada vakolat mavjud emas. Qolaversa, hujjatlar aylanmasini tashkil etishda ko'nikma va tajriba hali yetarlicha shakllanmagan bo'lib, to'plangan ma'lumotlarning aniqligi borasida qator savollar tug'iladi. Viloyat tashkilotlari rahbarlarida o'z tumanlarini imkon qadar "yashil" hududga o'tkazishga, ma'lumotlarni ijobiy rakursda taqdim etishga intilish mavjud. Mahallalari toifasini belgilashda ma'lumotlar sektor rahbarlari imzosi va tasdiqi bilan olinishi, Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'linmalari tomonidan to'planishi zarur.



YOSHLAR OVOZI
SIYOSIY FANLAR
SEKTORINING MAHALLADAGI YOSHLAR
YETAKCHILARINING O'RNINI



HAQIQIY MINBAR

Sahifani Ziyoda RAHIMBOYEVA tayyorladi.

Ular respublikamizning turli hududlarida istiqomat qilishadi, mahalla yoshlarining vaqtini unumli o'tkazish uchun har kuni harakatda, izlanishda. Iqtidorlilarni yuzaga chiqarish, hech kimning bo'sh qolib ketmasligi uchun qayg'urish ish kunining butun mazmuni.

Ular – eng faol, namunali yoshlar yetakchilari! Shuning uchun ham ulardan ko'p narsa o'rganish va o'rnak olish mumkin.

Xo'sh, ular joriy yilning 15-aprel kuni bo'lib o'tishi kutilayotgan "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rni" mavzusidagi konferensiyada nimalarga tayyorgarlik ko'rishmoqda, kim qanday ishtirok etishni rejalashtirgan? Qanday takliflar kiritishmoqchi? Bugun bir nechta faol yetakchilar shu kabi rejalarini "Yoshlar ovozi" bilan o'rtoqlashdi!



Kamol SALYAMOV,

Buxoro shahridagi

Amir Temur nomli mahalla yoshlar yetakchisi:

QIYINCHILIKLARI HAM YO'Q EMAS...

– Yoshlar yetakchisi lavozim bilan birga, eng mas'uliyatli va murakkab vazifani ham yelkasiga oladi. Birinchi o'rindagi qiyinchilik bu yoshlarning ishonchini qozona olish deb hisoblayman. Har bir yosh bilan individual ishlash, suhbatlar o'tkazish va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, qo'llab-quvvatlashdan so'nggina kutilgan ijobiy natijaga erishishimiz mumkin. Boshqa hamkasblarimga ham shuni tavsiya qilaman: yoshlarni chin ma'noda "yetaklash" uchun har biri bilan alohida shug'ullanishimiz kerak. Chunki har bir o'smir yoki o'spirinning o'z dunyosi, hali kashf etilmagan qizralari bor, shuni unutmaylik! Shu bilan birga, keyingi o'rinda olib borilayotgan islohotlarga, yaratilgan imkoniyatlarga javoban Prezidentimiz qarorlarida ko'rsatilgan vazifalarni so'zsiz bajarilishiga mas'uliyat bilan yondashish



zarur masala. Mahalla aholisining muammolarini sifatli va tez fursatda yechilishini ta'minlashda xatolarga yo'l qo'ymasligimiz, mahalladagi minglab yoshning kelajagi bizga ishonib topshirilganini har kuni, har soatda his etishimiz kerak!

Ushbu konferensiyaning o'tkazilishi mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan davlat siyosatiga bo'lgan mas'uliyatli yondashuvning yaqqol namunasidir. Konferensiya biz, yetakchilar faoliyatiga yengillik kiritishi, mahalliy hokimiyat va boshqa hamkor tashkilotlar bilan ishlash hamda manfaatdor idoralar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishda ajoyib bir turki bo'lishiga ishonchim komil.

MAQSADIM...

– Yoshlar yetakchisiga juda ko'p vakolatlar berilgani hech birimizga sir emas, biroq uning zimmasidagi vazifalar ham talaygina. Har bir yoshni to'g'ri yo'lga yetaklash, qo'llab-quvvatlab, o'rni kelganda yo'nalish berish uchun yetakchida imkoniyatlar imkon qadar keng va o'rinni bo'lishi bugungi kun zaruriyati. Agar mendan "Yoshlar yetakchisiga yana qanday vakolatlar berilishi kerak", – deb so'rashsa, albatta, "Yoshlar yetakchisiga ham qo'shimcha jamoatchi qo'shib berish kerak", deb taklif bergan bo'lar edim. Chunki tashkiliy masalalar bilan birga yoshlar orasida, ular bilan yelkama-yelka, hamnafas bo'lish oson emas. Ammo bugun men va men tanigan ko'plab yetakchilar hammasiga ulgurishga harakat qilaymiz. Konferensiya esa biz uchun so'zsiz juda hayajonli va muhim jarayon, ayniqsa, faol yetakchilarimiz o'z muammo va takliflarini berishi uchun haqiqiy minbar bo'la oladi.

Konferensiyada ishtirok etish uchun o'z takliflarimni ham tayyorlab qo'yganim. Boshqa hamkasblarimga ham shuni eslatishni xohlayman: Prezidentimizning "Besh tashabbusi" mahallada yoshlarning vaqtini to'g'ri va unumli taqsimlash, turli qoidabuzarliklarning oldini olishda juda katta imkoniyat eshigidir! Chunki yoshlar turli yot va xato yo'llarga kirib qolishida bekorchilikda o'tgan vaqtining asorati ko'p bo'ladi. Ularni bu imkoniyatdan foydalanishga undash, to'g'ri yo'lga yetaklash biz, yetakchilarning bosh vazifamiz.

Ulug'bek YUN'USOV,
Namangan shahridagi "Obi-Hayot" mahallasi yoshlar yetakchisi:



IMKON QADAR FAOL BO'LAMAN

– "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rni" mavzusidagi konferensiya kutilgan va zaruriy, qizg'in jarayon. Bu men qatori ko'pchilik yetakchilarni befarq qoldirmasligi aniq. Chunki yoshlar siyosati deganda islohotlarga eng birinchi yordamchi sifatda yetakchilar ko'z oldimizda gavdalanishi kerak. Bu nafaqat konferensiyaning, ham-mamizning ezgu niyatimiz, ustuvor vazifamiz! Ushbu jarayonda imkon qadar faol bo'lishga, yoshlar bilan ishlashda, yuqori natijalar ko'rsatishda qo'limdan kelgan har qanday imkoniyatni ishga solishga harakat qilaman.

Maftuna MAMARASULOVA,
Ishixon tumanidagi "Baxrin" mahallasi yoshlar yetakchisi:



AHOLINI RO'YXATGA OLISH ASOSIY MAQSADLAR MUHOKAMA ETILDI

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi 379-maktabda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrda 710-sonli "O'zbekiston Respublikasida 2023-yil aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida"gi qarorining bajarilishi yuzasidan o'quv seminari tashkil etildi.

Seminarda ro'yxatga olish ishlari 2023-yil 1-25-noyabr kunlari o'tkazilishi, tadbirga tayyorgarlik ishlarini tashkil etishda ko'cha nomlari, xonadon tartib raqamlarini shakllantirish, kadastr agentligi bilan

hamkorlikda mahalla fuqarolar yig'inining kartografik sxemalarini yangilash, qo'shimchalar kiritish aytib o'tildi. Shuningdek, aholini ro'yxatga olishning asosiy vazifalari aholining sog'lig'ini mustahkamlash, xotin-qizlar va bolalar yashash sharoitlarini yaxshilash, oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha choralarni ishlab chiqish maqsadida aholi tarkibidagi, mamlakatning demografik vaziyatdagi o'zgarishlarni baholashga doir ma'lumotlar bazasini kengaytirishdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tildi.

Rusan QAHRAMONOV,
Mirzo Ulug'bek tumani statistika bo'lim boshlig'i



MATN.UZ
Bexato .Qulay .Bepul



O'zbek tilida imlo X hatolar bilan yozasizmi?

U holda matn.uz'dan foydalaning!

Huddi, talofat, ruhsat, mumkun... 😞

Xuddi, talafot, ruxsat, mumkin... 😊

Bizning vazifamiz ham murakkab, ham oddiy, ya'ni aholining barcha qatlamlarida to'g'ri va mukammal yozayotganlar sonini ko'paytirish, o'z ona tilimizga bo'lgan mehrni kuchaytirish va samarali muloqot orqali hayotni yaxshilash!

Bizning tahrirchi assistentimiz toza, xatosiz husnixat va o'zbek grammatikasiga asoslangan maslahatlar ulashadi. Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan platformamiz sizning imkoniyatlaringizni yanada kengaytiradi va fikrlaringiz muharrirlik markazi sifatida qurilmangiz xotirasidan o'rin egallaydi.

Loyiha yordamida biz qayerda va qaysi payt bo'lishidan qat'i nazar, foydalanuvchilarimizning fikrlari eshutilishi va inobatga olinishiga yordam berishga harakat qilamiz. Dastur bir necha yuz marotaba tekshiruv hamda keng izlanishlar asosida sizga taqdim etilyapti.

O'ZBEK TILIDA BEXATO YOZAMIZ

@matnuzofficial @matn.uz

App Store
orqali yuklab oling

Google Play
orqali yuklab oling

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Iqbol PARDAYEVA

Musahhihlar:
Shahribonu RAHMATOVA,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ruyxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisi, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-355, Adadi - 10573. Bosishga topshirilish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6